

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 657.2

XOLPO'LOTOV RUSTAM O'KTAMOVICH

**MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: PhD., dotsent A.Kozimjonov

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI TASHKIL QILISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	13
1.1§. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy sohasida neft va gaz sanoati korxonalarining tutgan o'rni va ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish xususiyati.....	13
1.2§. Moliyaviy instrumentlarning nazariy-uslubiy asoslari.....	23
1.3§. Moliyaviy instrument hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari	32
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	39
II BOB. NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....	41
2.1§. Moliyaviy aktivlarni tan olish va ularni hisobini tashkil qilish.....	41
2.2§. Moliyaviy majburiyatlar hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	55
2.3§. Neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etishning amaliy holati.....	66
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	83
III BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	85
3.1§. Shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv tashkil etishni takomillashtirish.....	85
3.2§. Neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	100
3.3§. Moliyaviy instrumentlar haqidagi axborotlarni moliyaviy hisobot izohlarda yoritishni takomillashtirish	109
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	121
Xulosa	123
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	126
Ilova	135

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish moliya bozorlarining shaffofligini ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va global iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida moliyaviy instrumentlarni aniq va izchil hisobga olish ularning haqiqiy qiymatini to'g'ri aks ettirish, risklarni baholash va kapital bozorlarida qiyoslash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, derivativlar, gibrid moliyaviy vositalar va ESGga yo'naltirilgan investitsiya instrumentlarining hisobini takomillashtirish orqali moliyaviy hisobotlarda xavf va daromadlarning haqqoniy taqsimoti ta'minlanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham ta'kidlanganidek, "IFRS 9 standartini joriy etish moliyaviy instrumentlar hisobini ilgarigidan aniqroq qilish, kredit risklarini samarali baholash va bozor ishtirokchilari uchun ishonchli ma'lumot taqdim etishga xizmat qilmoqda"¹. Iqtisodiyotni neft va gaz mahsulotlarini bilan ta'minlashda neft va gaz sanoati korxonalarining ahamiyati katta. Neft va gaz sanoati korxonalarida neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish ko'p investitsiya talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bu esa neft va gaz sanoati korxonalarida zamonaviy korporativ boshqaruv usullaridan foydalanish, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zaruratining dolzarbligini yanada oshiradi.

Jahonda faoliyat yuritayotgan neft va gaz sanoat korxonalarining asosiy vazifalari neft va gaz mahsulotlarini geologik qidiruv ishlarini olib borish va ularni qazib olish ishlarini amalga oshirishdan iborat. Neft va gaz mahsulotlariga ehtiyoj bilan ta'minot o'rtasidagi muvozanatni nazorat qilib turish har bir davlat iqtisodiyot xavfsizligi darajasida ham doimo dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, neft va gaz sanoati korxonalari faoliyati doirasida ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamli ravishda olib borilmoqda. Neft va gazni qazib olish va taqsimlash bilan bog'liq tizimi juda murakkab jarayon va bu jarayon katta kapital talab qilinishini inobatga oladigan

¹Barth, M.E., & Landsman, W.R., How Did Financial Reporting Contribute to the Financial Crisis?, European Accounting Review, 19(3), 2010. DOI: <https://doi.org/10.1080/09638180.2010.498619>.

bo'lsak, neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlarning jozibadorligini oshirish va hisobini yuritishda yangi mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda neft va gaz sanoati korxonalariga kapital jalb qilishda moliyaviy instrumentlarning jozibadorligini oshirish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bo'yicha alohida e'tibor qaratish belgilangan. «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida»² alohida hukumatimiz rahbari tomonidan qarorlari bilan ham belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish»³ kabi vazifalarning belgilangan. Shu bois, neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy instrumentlarning hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2012-yil 19-martdagi PQ-

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020 y., 07/20/4611/0209-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.